

KOMPONENTLI SUPERFINISH

Yuqori mustahkamlikka ega professional mat poliuretan lak. Yeyilishga chidamlilikka yuqori talablar qo'yilgan obyektlar uchun mo'ljallangan, pollar, sanitariya tugunlari va nam zonalarni himoya qilish uchun ishlatiladi. Juda yuqori himoya talab qilinadigan barcha dekorativ qoplamalarga qo'llanadi.

SIRTNİ TAYYORLASH

Akril asosidagi bo'yoqlar va dekorativ suvoqlar lakni qo'llashdan oldin to'liq qurigan va yetarli mustahkamlikka ega bo'lishi kerak. Lakni 7-10 kundan oldin qo'llash tavsiya etilmaydi.

Yuzada ajralish, ifloslanish va chang bo'lmasligi kerak. Agar mavjud bo'lsa, ehtiyotkorlik bilan to'liq tozalanishi kerak.

- ! Qo'llash paytidagi minimal harorat +10°C.
Maksimal harorat +30°C.
Nisbiy namlik 80% dan oshmasligi kerak.

A komponentini past tezlikli mikser bilan (500 aylanish/min gacha) aralashtiring, devor yaqinidagi va idish tubidagi qatlamga alohida e'tibor bering.

A komponentiga B komponentini qo'shib, 3-5 daqiqa davomida aralashtiring. B komponentini aylanuvchi aralashtirgichga ingichka oqim bilan quyish kerak. Zarurat bo'lsa erituvchi qo'shilishi mumkin.

A komponent 10 qism
+ B komponent 1 qism
+ erituvchi 0-2 qism (1 litr : 100 ml : 0-200 ml)

SURTISH

Material toza va quruq yuzaga bo'sh joy qoldirmasdan, valik yoki tabiiy cho'tka bilan bir tekis surtiladi. Lakni qo'llashdagi asosiy maqsad – butun yuzada bir xil qatlam hosil qilish.

Lak tarkibidagi erituvchi tez bug'lanadi, shuning uchun surtgandan keyin 10-15 daqiqa o'tgach, qatlam to'liq qotmaguncha yuzaga hech qanday aralashish taqiqlanadi.

- ! **Qalin qatlamda surtish mumkin emas.**
Materialning oqib ketishi, to'lqinlanishi va chiziqlar hosil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bir qatlam sarfi – 0.07-0.09 l/m².

Qatlamlar orasidagi qurish vaqti +20°C da 8-12 soat.

Devorlarga 2 qatlam, pollarga 3 qatlam tavsiya etiladi.

Yengil foydalanish uchun qurish vaqti 3-5 kun.

To'liq foydalanish uchun qurish vaqti 7-9 kun.

TAVSIYALAR

- ! **MUHIM:** lak ostidagi dekorativ qoplama rangi chuqurlashishi mumkin.
Oldindan sinov bo'yash zarur. Lak bilan qoplangandan keyin yuzaning yaltiroqlik darajasi taxminan 7 birlik bo'ladi.

- ! **MATERIAL YONUUVCHAN.** Olov manbalaridan uzoqda saqlash kerak.
Yopiq xonalarda ish paytida yetarli ventilyatsiya ta'minlanishi kerak, ochiq olov va payvandlash ishlari taqiqlanadi.

Himoya vositalari, niqob va respiratorlardan foydalanish majburiy. Ko'zga yoki shilliq qavatga tegsa, darhol ko'p suv bilan yuvish va shifokorga murojaat qilish kerak.

Faqat ichki ishlar uchun.

Asboblardan va idishlardan ishlatilgandan so'ng utilizatsiya qilinadi.

Yuzani uzoq muddat himoya qilish uchun lak qoplamasini har 2-4 yilda yangilash, shuningdek shikastlangan joylarni qayta yopish tavsiya etiladi.